SOMONIYLAR SULOLASINING ISLOM SIVILIZATSIYASIDAGI TARIXIY AHAMIYATI

Botirova Nafosat Xurmatbek qizi,
UrDU, Tarix kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: nafosatbotirova90@gmail.com
nafosatbotirova9@gmail.com

Muhammadjonova Mohlaroyim Jamolbek qizi,
UrDU, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
mohlaroyimmuhammadjanova521@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967872

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasining Islom olamidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada davlat boshqaruvi, ilm-fan homiyligi va diniy bag'rikenglik masalalari tarixiy asarlar asosida yoritilgan. Somoniylar davlatining shakllanish jarayoni, siyosiy boshqaruv tizimi hamda Movarounnahr va Xuroson hududlaridagi barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yoritadi. Bundan tashqari, ilm-fan, adabiyot va madaniyatning yuksalishi, buyuk allomalarning yetishib chiqishi hamda iqtisodiy hayot, savdo aloqalari va hunarmandchilikning rivojlanishi ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Somoniylar davlati nafaqat siyosiy tuzilma, balki yuksak ilmiy va madaniy markaz sifatida ham islom olamida muhim o'rin egallagan. Ularning merosi bugungi kunda ham tarixiy va madaniy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Somoniylar sulolasi, islom sivilizatsiyasi, Movarounnahr, Xuroson, Ismoil Somoniy, ilm-fan, madaniyat, Buxoro, iqtisodiy taraqqiyot, musulmon uyg'onish davri.*

Аннотация. *В данной статье анализируется место династии Саманидов, правившей в Трансоксиане и Хорасане в IX-X веках, в исламском мире. На основе исторических работ рассматриваются вопросы государственного управления, покровительства науке и религиозной терпимости. Проливается свет на процесс формирования государства Саманидов, его политическую систему управления и роль в обеспечении стабильности в регионах Трансоксианы и Хорасана. Кроме того, на научной основе анализируются развитие науки, литературы и культуры, появление великих ученых, а также развитие экономической жизни, торговых отношений и ремесел. Результаты исследования показывают, что государство Саманидов занимало важное место в исламском мире не только как политическая структура, но и как высокий научный и культурный центр. Их наследие и сегодня имеет огромное историческое и культурное значение.*

Ключевые слова: *династия Саманидов, исламская цивилизация, Трансоксиана, Хорасан, Исмаил Саманид, наука, культура, Бухара, экономическое развитие, мусульманское возрождение.*

Abstract. *This article analyzes the place of the Samanid dynasty, which ruled in Transoxiana and Khorasan in the 9th-10th centuries, in the Islamic world. The article discusses the issues of state governance, patronage of science, and religious tolerance based on historical works. It sheds light on the formation process of the Samanid state, its political governance system, and its role in ensuring stability in the regions of Transoxiana and Khorasan. In addition, the rise of science, literature, and culture, the emergence of great scholars, and the development of economic*

life, trade relations, and crafts are analyzed on a scientific basis. The results of the study show that the Samanid state occupied an important place in the Islamic world not only as a political structure, but also as a high scientific and cultural center. Their legacy continues to be of great historical and cultural significance today.

Keywords: *Samanid dynasty, Islamic civilization, Transoxiana, Khorasan, Ismail Samanid, science, culture, Bukhara, economic development, Muslim Renaissance.*

Kirish. Somoniylar sulolasi davri Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin egallagan siyosiy va madaniy tarixiy davrdir. IX–X asrlarda hukmronlik qilgan bu sulola islom sivilizatsiyasining Sharqiy hududlarida mustahkamlanishi, rivojlanishi va mahalliylashuvi jarayonida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlikni ta’minlab, ilm-fan, adabiyot, iqtisodiyot va diniy hayotning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Somoniylar davlati nafaqat siyosiy birlikni mustahkamladi, balki islom madaniyatini mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashtirib aynan shu sulola davrida Markaziy Osiyo xalqlarining islom diniga kirishi va to‘liq bu dinni qabul qilishi jarayoni bo‘lib o‘tgan. Tatqiqotlar natijasida Somoniylar sulolasining shakllanishi, siyosiy faoliyati, madaniy-ma’rifiy roli hamda islom sivilizatsiyasidagi tarixiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Somoniylar sulolasi Tabariyning yozishicha turklardan kelib chiqqan. Ko‘pchilik olimlar Somoniylar shajarasini Bahrom Cho‘binga borib taqashadi[1].

Dolzarbligi. Jafar an-Narshaxiyning “Buxoro tarixi” nomli asarida yozilishicha somoniylarning bobosi bo‘lmish Somon Balxdan qochib Marvga kelgan. O‘sha davrda Xuroson amiri Asad ibn Abdulloh al-Kushayriy bo‘lib, u juda aqlli va dono hukmdor bo‘lgan. U Somonning dushmanlariga qahr qilib Balxni unga qaytarib beradi. Somon uning qo‘lida islomni qabul qilgan. Somonga “Somonxudot” deyilishiga sabab, u bir qishloq barpo qilgan va unga Somon deb nom bergan. Buxoro amirini Buxorxudot deb ataganlaridek Somonni ham Somonxudot deyishgan. Somonxudotning bir o‘glib o‘lib, u o‘gliga Asad Kushayriyni juda hurmat qilganligi sababli Asad deb ism qo‘ygan. Shu Asad biz bilgan buyuk hukumdor Ismoil Somoniyning bobosidir. Asadning 4 ta o‘g‘li bo‘lib, ular Nuh, Ahmad, Yahyo, Ilyos. Ular Arab xalifasi Ma’munga qarshi ko‘tarilgan Rofe ibn Lays qo‘zg‘alonini bostirishda yordam bergan. Bu yordamlari uchun ularga turli hududlar sovg‘a sifatida berilgan. Ular Arab xalifaligiga faqat o‘lpon to‘lab turishgan. Amalda esa mustaqil bo‘lishgan. Shunday qilib 865-yilda Nasr ibn Ahmad davriga kelib, Movaraunnahrni Xurosondan ajratib olib boshqara boshlaydi. 900-yilda uning ukasi Ismoil Somoniy Safforiylar hukmdori bilan jangda g‘alaba qilib Xurosonnni ham egallaydi. Movaraunnahr va Xurosonni birlashtirib, Somoniylar davlatiga asos solidi. Davlat poytaxtini esa Buxoro qilib belgilaydi[2; 33-34-b.]

Somoniylar davlating yuksalishi uning oltin davri aynan Ismoil Somoniy (892-902)davri bilan bog‘liq. Uning qay darajada adolatli, aqilli, dono ekanligini turli olim yozuvchilarning u haqidagi fikrlaridan bilishimiz mumkin. Masalan, Narshaxiy o‘z asarlarida uni juda adolatli ekanligini tariflab “Ismoil ibn Ahmad adolatli, raiyatparvar va yaxshi siyosat yurituvchi amir edi. U zulmni yo‘qotib, mamlakatda tartib o‘rnatdi” yozgan[2;50-51-b.]

Somoniylar davri Islom olamida tizimli oliy ta’lim maskanlari madrasalarning shakllanish davri hisoblanadi. Somoniylar davrida madrasa tizimining shakllanishi Islom sivilizatsiyasi tarixida tub burilish yasagan voqelikdir. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, X asrda Buxoroda "Farjak" (yoki Farajak) madrasasi faoliyat yuritgan. Narshaxiy o‘zining "Buxoro tarixi" asarida 937-yildagi yirik yong‘in haqida gapirar ekan, ushbu madrasaning ham yonib ketganini afsus bilan tilga oladi Bu ma'lumot madrasaning X asr boshlaridayoq mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi[2;45-48-b]

Beruniy Somoniylar davrini yuqori baholab, Ismoil Somoniyni “ilm va madaniyatni rivojlantirgan hukmdorlar sirasidan” deb ko‘rsatadi. Bu uning ilm-fan homiysi bo‘lganini bildiradi[3;113-b.]

Ibn al-Asir esa “Ismoil Somoniy Movarounnahrda kuchli hokimiyat o‘rnatdi va dushmanlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi” deydi. Bu ta’rifda u kuchli davlat arbobi va sarkarda sifatida tariflangan[4;7-8-b.]

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyo tarixida IX–XII asrlar oralig‘i ko‘pincha “Birinchi Renessans” yoki “Musulmon Uyg‘onish davri” sifatida e’tirof etiladi. Ushbu davr ilm-fan, falsafa, tibbiyot, matematika va adabiyotning mislsiz darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Aynan shu uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi Somoniylar sulolasi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Somoniylar davlati Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlikni ta’minlab, ilmiy va madaniy rivoj uchun zarur sharoit yaratdi. Buxoro, Samarqand, Marv kabi shaharlar yirik ilmiy markazlarga aylanishi bevosita Somoniylar homiyligi bilan bog‘liq edi. Ayniqsa, Buxoro “Islom dunyosining qubbasi” sifatida tanilib, olimlar va mutafakkirlar uchun markaz vazifasini o‘tadi.

Birinchi Renessans davrining asosiy belgilaridan biri ilm-fanga bo‘lgan yuqori e’tibor va erkin ilmiy muhitning mavjudligidir. Somoniylar aynan shu jihatni davlat siyosati darajasiga ko‘tardilar. Ular ilm ahlini qo‘llab-quvvatlab, kutubxonalar, madrasalar va ilmiy markazlar tashkil etdilar. Natijada, bu davrda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi. Ularning ilmiy merosi nafaqat islom olamida, balki jahon sivilizatsiyasida ham muhim o‘rin tutadi.

Somoniylar davrida tarjima faoliyati ham keng rivojlandi. Yunon, hind va fors manbalari arab tiliga tarjima qilinib, ilmiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qildi. Bu jarayon esa Birinchi Renessansning asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

Bu davrda hadis, fiqh va tafsir ilmlari rivojlandi. Diniy ulamolar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Natijada, Movarounnahr islom ilmlarining muhim markaziga aylandi.

Tatqiqot natijalari. Somoniylar davrida Buxoro “Islom olamining gumbazi” (Qubbat ul-Islom) maqomini oldi. Ibn Sino o‘z tarjimai holida Somoniylar kutubxonasini shunday ta’riflaydi: “Men u yerda shunday kitoblarni ko‘rdimki, ularning nomini ko‘pchilik hatto eshitmagan edi... Bu kutubxona mening bilim dunyoqarashimni butunlay o‘zgartirdi”[5; 5-12-b.].

Bu davrda nafaqat diniy ilmlar, balki tabiiy fanlar ham gullab-yashnadi. Al-Xorazmiyning algebra faniga asos solishi, Beruniyning astronomik kuzatishlari aynan shu sulola yaratgan. Somoniylar davrida Islom dinining intellektual va ma’naviy qirralari chuqur ishlandi. Imom al-Buxoriy an’analarini davom ettirgan holda, Abu Mansur al-Moturidiy Islomiy aqidani aql va mantiq bilan bog‘ladi. Moturidiy ta’limoti Somoniylar davlatining rasmiy mafkuraviy tayanchi bo‘lib xizmat qildi barqaror muhit mahsulidir[6;18-25b.].

Xulosa. Maqolada Somoniylar sulolasining islom sivilizatsiyasini Markaziy Osiyoda mustahkamlash, uni mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirish va keyingi tarixiy jarayonlarga ta’siri ochib beriladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Somoniylar sulolasi Markaziy Osiyoda nafaqat kuchli siyosiy davlat barpo etgan, balki islom sivilizatsiyasining yangi bosqichga ko‘tarilishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ularning hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot hamda ilmiy-madaniy yuksalish uyg‘un holda rivojlandi. Ayniqsa, Somoniylar tomonidan yaratilgan ilmiy muhit va madaniy sharoit Birinchi Renessansning shakllanishiga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi. Umuman olganda, Somoniylar sulolasining tarixiy ahamiyati ularning nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham islom sivilizatsiyasi va jahon madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatganida namoyon bo‘ladi. Ilm-fan va dinni aynan shu sulola davriga kelib rivojlanishida hukmdorlarning o‘rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Jafar Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix ar-rusul val-muluk (Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi). Toshkent: “Fan”, 1987. – 310 b
2. Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi. (Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi). Toshkent: “Fan”, 1966.- 33-51 b
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent. 1968. -113 b.

4. Ibn al-Asir. Al-komil fit-tarix (Mukammal tarix). (O‘zbekcha tarjimasi: N. Ibrohimov). Toshkent: "O‘zbekiston", 2006. – 7-8 b
5. Ibn Sino (Avicenna). Al-ishorat va-t-tanbihat (Ko‘rsatmalar va o‘gitlar). Tehron: "Matbaat al-Haydari", 1954. 5-12 b
6. U. Uvatov. Markaziy Osiyo allomalari va Islom madaniyati. Toshkent: "O‘zbekiston", 2004. – 18-25 b